

## BOLALARDA TISH CHIQISH JARAYONI VA PARVARISH QILISH

*Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti  
Stomatologiya yo'nalishi 1 – kurs talabasi*

**Xolmurodova Manzura**

*Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti  
Klinik kafedra o'qituvchisi: Axtamova Irodaxon Akbarovna*

**Annotatsiya;** tish chiqish jarayoni, tish chiqishining klinik belgilar, parvarish qilish , tish chiqish davridagi belgilar , ota-onalar yo'l qo'yadigan xatolar.

**Kalit so'zlar;** tish chiqishi, sut tishlari, bolalar stomatologiyasi, og'iz gigiyenasi, parvarish, pediatriya

Bolalarda tish chiqish jarayoni (dentitsiya) fiziologik holat bo'lib, bola organizmining rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Odatda birinchi tishlar 6 oylikdan boshlab chiqa boshlaydi. Bu jarayon ko'pincha bola uchun noqulayliklar bilan kechadi. Shu sababli bu davrda to'g'ri parvarish qilish va gigiyenaga rioya etish muhim ahamiyatga ega.

Bolalarda tish chiqishi ketma-ketlikda amalga oshadi. Avvalo pastki markaziy kesuvchi tishlar chiqadi, undan keyin yuqori kesuvchi tishlar paydo bo'ladi. Umuman olganda, 2–2,5 yoshga kelib bolada 20 ta sut tishi to'liq shakllanadi. Tish chiqish muddatlari individual bo'lib, ayrim bolalarda erta yoki kech boshlanishi mumkin. Bu holat organizmning umumiy rivojlanishi, genetik omillar va ovqatlanish bilan bog'liq.



Tish chiqish davrida quyidagi belgilar kuzatilishi mumkin:

- milklarning shishishi va qizarishi
- ko'p so'lak ajralishi
- bola bezovta bo'lishi
- uyqu buzilishi

- ba'zida tana haroratining biroz oshishi

Bu belgilar tabiiy bo'lib, odatda jiddiy davolashni talab qilmaydi. Ammo harorat yuqori bo'lsa yoki bola holati og'irlashsa, shifokorga murojaat qilish kerak.

Bolalarda tish chiqish davrida to'g'ri parvarish juda muhim hisoblanadi. Bu holatda quyidagi tavsiyalar muhimdir:

- Bolaning milklarini toza, nam doka bilan artib turish
- Maxsus silikon tish qashlagichlardan foydalanish
- Bola og'ziga toza bo'lmagan buyumlarni solishiga yo'l qo'ymaslik
- Tishlar chiqqandan so'ng maxsus bolalar cho'tkasi bilan tozalashni boshlash
- Gigiyenaga rioya qilinmasa, kelajakda kariyes rivojlanish xavfi ortadi



Ko'pincha ota-onalar quyidagi xatolarga yo'l qo'yadi:

- tish chiqishini kasallik deb noto'g'ri baholash
- shifokor tavsiyasisiz dorilar berish
- gigiyenaga e'tibor bermaslik

Bunday xatolar bolaning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

**Xulosa:** Bolalarda tish chiqish jarayoni tabiiy fiziologik jarayon bo'lib, uni to'g'ri tushunish va parvarish qilish muhimdir. Bu davrda gigiyena qoidalariga rioya qilish, to'g'ri ovqatlantirish va zarur hollarda shifokor bilan maslahatlashish orqali tish kasalliklarining oldini olish mumkin. Sog'lom sut tishlari kelajakda doimiy tishlarning to'g'ri rivojlanishiga zamin yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Barer G.M. – Terapevtik stomatologiya asoslari.
2. Borovskiy E.V. – Bolalar stomatologiyasi.
3. Leus P.A. – Stomatologik kasalliklarning profilaktikasi.